

## NEMIS TILI FRAZEOLOGIZMLARIDA GIPERBOLANING ROLI

**Juraqulova Ozoda**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: f.f.f.n **Abdullayeva S. Ya.**

### ANNOTATSIYA

Bugungi kunda frazeologizmlardagi qo‘llanilgan va qo‘llanilib kelinayotgan vositalar yuasidan turli tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tadqiqotning dolzalbligi ham shuni talab etadiki, ushbu maqolada nemis tilidagi frazeologizmlarda qo‘llanilgan giperbola vositasi va uni amaliy hamda nazariy jihatdan tahlil eta olishdadir. Tadqiqotning asosiy maqsadi nemis tilidagi frazeologizmlardagi qo‘llanilgan giperbola turlari va ularning semantik hamda grammatik tuzilishi bilan birga og‘zaki, yozma va badiiy asarlarda qo‘llanilgan giperbolaning yondosh vositalarini ham tadqiq qilishdan iborat.

**Kalit so‘zlar;** Giperbola, litota, paronimiya, antonimik qator, nominativ funksiya, informativ funksiya, ritorik vosita, contrast.

### ABSTRACT

Today, various researches are being carried out on the means used and being used in phraseology. The relevance of the research also requires that in this article the means of hyperbola used in German phraseology and its practical and theoretical analysis. The main purpose of the study is to study the types of hyperbola used in German phraseology and their semantic and grammatical structure, as well as related means of hyperbola used in oral, written and artistic works.

**Keywords:** Hyperbola, litota, paronymy, antonym series, nominative function, informative function, rhetorical means, contrast.

Har bir millatning bu dunyoda borligini ko'rsatadigan oynai- jahoni til va adabiyotdir. Bu so'zlar bizdan ming yillar avval aytilgan bo'lsada hali xanuz ifodasini, mazmunini yo'qotmagan. Tilning lug'at boyligi nafaqat yangi so'zlarning (neologizmlarning) shakllanishi, shu bilan birga chet tillaridan kirib kelgan va alohida so'zlarga nisbatan ma'noning o'zgarishi, balki erkin sintaktik so'z bilan ham boyib boradi. Nutqimizning aniq, ta'sirchan va ekspressivligini oshirib, nutqimizning tushunarli va ravon bo'lishida frazeologizmlarning o'rni beqiyosdir.

Frazeologiya" atamasi yunon tilidan olingan bo'lib, u ikkita komponentdan iborat:

- 1) "ibora" – idioma, ifoda;
- 2) "logos" - ta'limot.

Har qanday tilning frazeologik o'ziga xosliklarini o'rganish mutaxassislar – olimlar va tilshunoslarni tayyorlashda nihoyatda muhim o'rinni egallaydi. Tadqiqotchi-frazeologlar har bir tilning frazeologik tarkibida frazeologizmlarning tizimli xususiyatlaridan kelib chiqadigan muayyan qonuniyatlar mavjudligini; shu jumladan, "frazeologizmlar tilning boy leksik zaxirasidan tarkibiy qismlarni tanlash qobiliyati" deya takidlagan.

Frazeologizmlar bo'yicha I.I. Chernisheva turli xil sintaktik strukturaviy so'zlarning majmualari bo'lib, ularning ma'nosi tarkibiy qismlarning to'liq yoki qisman semantik o'zgarishidan kelib chiqadi.[1] Bundan kelib chiqadiki, frazeologizm til tizimidagi maxsus birlik bo'lib, o'ziga xos ma'no, vazifa va tuzilishga ega. Binobarin, semantika har xil turdagi iboralarga mos til modellari yordamida ifodalanadi. Frazeologizmlarning asosiy vazifasi nutqimizga emotsional-ekspressiv ma'no berishdan iborat. Nominativ va informativ funktsiyalar ularning yordamchi funktsiyalari hisoblanadi. Leksik birikmalarning asosiy vazifasi nominativdir. Shu bilan birga frazeologizmlarda eng yetakchi ro'l o'ynaydigan vosita giperboladir. Giperbola frazeologizmlarda eng muhim va keng vositalardan biridir. Giperbola adabiy matnlar, jumladan, ertaklar, shuningdek, og'zaki nutqda va

frazeologizmlarda ishlatiladi. Giperbolani o‘rganishni Aristotel Miloddan avvalgi IV-asrda boshlaganiga qaramay so‘nggi o‘n yilliklarda tilshunoslarning uni o‘rganishga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Giperbola atamasi qadimgi yunon tilidan: “bo‘rttirish; ortiqcha; mubolag‘a kabi manolarni bildiradi. Giperbola — aytilgan fikrning ifodaliligini oshirish va ta’kidlash uchun aniq stilistik figura desak yanglishmaymiz. Giperbola haqida turli xil fikrlar va muloxazalar mavjud. Masalan, Aristotel giperbolani shunday ta’riflagan: "Muvaffaqiyatli giperbola –bu aslida metaforadir". Masalan: hundert oder tausend Mal sagen, ozbek tilida “ biror narsa yoki hodisa haqida kimgadir yuz marta yoki ming marta aytmoq” deya tarjima qilinadi. Aslida, bir gapni yoki so‘zni yuz yoki ming marta aytish mumkin emas, bu yerda ham so‘zlovchi ifodalamoqchi bo‘lgan fikrini tinglovchiga aniq, ravon va lo‘nda yetqazib berish uchun giperboladan foydalangan. Giperbola - bu so‘zlovchining kuchli hissiy munosabatini yaratishi, bayonotni ta'kidlashi yoki drama tuyg‘usini qo‘shish uchun ataylab va haddan tashqari bo‘rttirishdan foydalanadigan nutq figurasi yoki adabiy vositadir. Misol uchun: Ich bin Hunger, Ich kann..... men juda ochman, men otni yeyishim mumkin deb aytishingiz mumkin. Siz tom ma'noda butun otni yeyolmaysiz. Shunga qaramay, siz qanchalik och ekanligingizni va ishtahangiz qanchalik ulkan ekanligini ta'kidlamoqchisiz. Fikrni bo‘rttirib ko‘rsatish uchun giperboladan foydalanishingiz mumkin.

Siz voqea, shaxs yoki vaziyat haqida biror narsani ta'kidlashni xohlasangiz, siz undan ritorik vosita sifatida o‘quvchilarni hikoyachining nuqtai nazariga yanada ishonchli dalillar bilan ishontirish uchun foydalanadi.

Frazeologimlarda giperboladan quyidagi maqsadlarda ham foydalanish mumkin:

- Fikrni ta'kidlash yoki bo‘rttirish uchun,
- Ikki fikr o‘rtasidagi kontrastni ko‘rsatish uchun,
- Tinglovchi e'tiborini tortish uchun,
- Oddiy tavsifga yoki vaziyatga qiziqish uyg‘otish uchun,

- Vaziyatga hazil qo‘shish uchun.[2]

Frazeologizmlarda uning ifodaliligi, obrazlilikini bera olish qobiliyati bilan birga frazeologizmning o‘ziga xosligi va ma’nodorligini taminlaydi. Bundan tashqari, giperbola ishtirok etgan frazeologizmlar turli vaziyatlarga uning bahosini, ob'ektga munosabatini aks ettiradi. Giperbola nafaqat xalq va ertaklarning emas, balki frazeologizmlarning ham ajralmas atributidir. Nutqimizda giperbola qatnashgan frazeologizmlarni nima uchun ishlatamiz degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin: “Giperbola - bu g‘oyani shakllantiradigan uslubdir. Aytmoqchi bo‘lgan g‘oya va yoki fikrimizni to‘liq, soda, tushunarli va ravon yetqazib berishimiz mumkin bo‘ladi. Giperbola ba’zan uyushgan bo‘lishi mumkin, ya’nin giperbola uzi bilan boshqa yordamchi vositalar yordamida yanayam yorqinroq va aniqroq mazmunni tashkil qilishi mumkin. Jumladan, epitetlar, o‘xshatishlar, metaforalar yanada kengroq til xususiyatlarini yanada kengroq ochib beradi. Shunga ko‘ra, giperbolalik epitetalar ajralib turadi. Masalan xusni oydek go‘zal; osmondek sevmok, giperbolali taqqoslashlarga esa mexri toshdan qattiq kabi misollarni olsak bo‘ladi.

Giperbola xilma-xil tuzilishga ega, frazeologizmlarda ishlatilgan giperbola ishlatilgan frazemada mazmunning biror narsadan uzoqlashishi yoki asl bir turdagi mazmunda belgilangan og‘ish yaratadi, yoki aksincha qaysidir vaziyatni bo‘rttirib yoki kamaytirib ko‘rsatish darajasini belgilaydi. Giperbolaning tasvirlagan vositasi qanchalik yorqinroq va aniqroq bo‘lsa, uning ta'sirida giperbola shunchalik kuchli bo‘rttirish kasb etadi. Litota ishtirok etgan giperbola o‘z navbatida frazeologizmga antonimik qatorni ham xosil qiladi. Masalan: Aus einer Mücke einen Elefanten machen.[3] Nemis tilidagi bu ibora o‘zbek tilida pashshadan fil yasamoq deya tarjima qilinadi. Pashsha va fil o‘zaro antonimik munosabat xosil qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Umuman olib qaraganda giperbola biror narsani tasvirlash usuli, u haqiqatdan ham kattaroq, yaxshiroq va hokazo degan taassurot qoldirish uchun, yoki fan tilida mubolag‘a deb ham atashimiz mumkin. Biz kundalik nutqimizda narsalarni haqiqatdan ham dramatikroq qilish uchun tez-tez giperbola

ishlatamiz. Ba'zan bu hazil qilish uchun, lekin ba'zida boshqa kuchli his-tuyg'ularni nishonga olish uchun ishlatiladi. Masalan; Ich sterbe vor lachen- Kulgudan o'lay dedim, chin ma'noda inson hech qachon kulgudan o'lmaydi. Yoki Ich habe ihn seit einer Million Jahren nicht gesehen- Men uni ko'rmaganimga million yil bo'ldi. Aslida uzoq muddat ko'rishmagan, lekin chin ma'noda million yil emas. Yuqoridagi misollarda ko'rganimizdek, frazeologizmlar oddiy gaplardan bir pog'ona baland tursa unda ishlatilgan giperbola vositasi uni yana bir pog'ona yuksakka olib chiqadi. Xulosa qilib aytganda, frazeologizmlarda ishtirok etgan giperbola nutqimizning mazmunli, ravon va aniq bo'lishini ifodalaydi. Giperbola tilda shunday o'ringa egaki, uni o'rnini hech qanday vosita va tarkib bilan almashtirib ham, yo'qotib ham bo'lmaydi. Giperbola tildagi jozibadorlik va stilistik jihatdangina emas, balki uning semantik tarkibiga ham ta'sir qiluvchi omildir. Giperbola vositasidan bo'lak hech bie bunday vositada giperbola bergan aniqlik va kuchli ma'nodorlik mavjud emas.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Амосова Н.Н. Современное состояние и перспективы фразеологии // ИЯШ. – 1981. – №3. – 78 с.
2. Вопросы семантики фразеологических единиц славянских, германских и романских языков. Тезисы докладов на научно-теоретической конференции в г. Новгороде, 1972. – 135 с.
3. Электронный ресурс. Режим доступа: <https://smartblogger.com>.